



AFFILIATSIYA MOTIVINING PSIXOLOGIK ADABIYOTLARDA O'RGANILGANLIK HOLATI

Olimova Gulrux Shoxrux qizi

QARSHIDU PSIXOLOGI MUTAXASSISLIGI I-KURS MAGISTRI.

Jahonda shaxs shakllanishi, ijtimoiy munosabatlar, hamkorlikda ishlash ko'nikmasi, shaxslararo munosabatlardagi nizolarni oldini olishda affilayativ motivlarni o'rni, ijtimoiy motivlarning shaxs shakllanishiga ta'siri, jamiyatga shaxsning integratsiyasi masalasiga qaratilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur holat affiliatsiya motivi, uning tarkibi, gender va yosh xususiyatlari, shuningdek, xarakterologik hamda shaxs xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, oiladagi o'zaro munosabatlardagi odatiy uslublarni o'rganish masalalarida tadqiqotlar ko'lamini kengaytirmoqda. Biroq bugungi kunda o'smirlar psixologik rivojlanishiga doir ayrim masalalar, jumladan, ular shaxsining shakllanishi, affiliatsiya motivini rivojlantirish, oilaviy munosabatlarning shaxs affilyatsiya motiviga ta'siri, jamiyatga moslashishni tadqiq etishga qaratilgan tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda so'nggi yillarida yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni barkamol qilib tarbiyalash, ularning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarning ustuvor yo'nalishlari belgilanib, zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Bu borada o'smirlarda guruhda ishlash ko'nikmalarini, ijtimoiy motivlarni, affilyatsiya motivini rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini ilmiy jihatdan chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha yondashuvlarni topish dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Respublikamizda rivojlanayotgan islohotlar jarayonida har tomonlama yetuk va barkamol avlodni tarbiyalash hamda ularni jamiyat va yurt ravnaqi uchun kerakli kadrlar qilib kamol toptirish muhim vazifalardan biridir. Ayni paytda bugungi yosh avlodni shaxslararo munosabatga o'rgatish, kognitiv qobiliyatlarini shakllantirish, manfaatli hamkorlikka intilish kabi maqsadlar, ehtiyojlar, motivlar majmuyidan iborat bo'lgan affiliatsiya motivatsiyasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan affiliatsiya motivatsiyasi o'quvchilarni o'quv faoliyati davomida aqliy, anglanilgan muloqot jarayoniga o'tishga undaydi, jamoada shaxslararo munosabatlarni yaxshilab, shaxsiy ijobiy kamolotini ta'minlaydi.

Motivatsion nazariyalarning kelib chiqish va rivojlanish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'pgina nazariyalarda qadimgi yunon faylasuflaridan Aristotel, Geraklit, Demokrit, Lukretsiy, Platon, Sokrat asarlaridagi g'oyalar o'rtaga tashlanganligini ko'rish mumkin. Ular motivatsiyani "muhtojlik" termini bilan atab, uni hayot o'qituvchisi sifatida e'tirof etishgan.

Demokrit muhtojlik ehtiyojiga "emotsional kechinmalarni harakatga keltiruvchi, inson aqli rivojlanishiga, nutq paydo bo'lishiga va mehnat qilishga odatlantiruvchi asosiy harakatlantiruvchi kuch", – deb ta'rif beradi. Geraklit esa undovchi kuchlarni, mayl, ehtiyojlarni bafurja ko'rib chiqib, ehtiyojlar hayot sharoitlari bilan belgilanadi, – degan



fikrni ilgari suradi. Sokratning ta'kidlashicha, har qaysi insonga ehtiyojlar, xohishlar, intilishlar xosdir. Aristotel esa inson xulq-atvor mexanizmlarini tushuntirishga harakat qiladi. Uning fikricha, intilish doimo maqsad bilan bog'liq. Intilishlar ehtiyojlar asosida inson faolligini belgilab beruvchi har qanday irodaviy harakat va emotsional holat kelib chiqishi nuqtayi nazaridan tabiiy asosga ega bo'ladi, deb ta'kidlaydi.

Psixologiyada motivatsiya muammosiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari ham mavjud bo'lib, ularda rus hamda xorij psixologlarining o'rne beqiyos (V.G.Aseyev, A.A.Fayzullayev, Ye.P.Ilin, V.I.Kovalyev, A.N.Leontyev, V.S.Merlin, S.L.Rubinshteyn, V.K.Vilyunas, M.Sh.Magomed-Eminov, P.V.Simonov, D.N.Uznadze, P.M.Yakobson), shuningdek, chet el psixologiyasida (A.Adler, Dj.Atkinson, K.Levin G.Myurrey, K.Madsen, A.Maslou, Dj.Rotter, X.Xekxauzen, G.Xoll va bosh).

Zamonaviy psixologiyada motiv va motivatsiya bilan bog'liq muammolar uch yo'nalish bo'yicha talqin qilinadi: psixoanalitik, kognitiv va gumanistik yo'nalishlarda o'rganila boshlandi.

1.Psixoanalitik yondashuv. Ushbu yondashuv vakillari Zigmund Freyd (1895) shaxsning shakllanishida asosiy urg'uni kuchli mayllar asosida hosil bo'luvchi psixik omillarga qaratadi. U.Mak-Dugall (1923) xulq-atvor shakllanishini instinktlarga bog'laydi. Keyinchalik yuqoridagi ilmiy tushunchalar psixologiyada G.Ollport, G.A.Myurrey, R.B.Kettella va F.Lerslar nazariyalarining yaratilishiga asos bo'lib xizmat qildi.

2. Kognitiv motivatsion yondashuv. Bu nazariya namoyandalari Dj.Rotter (1954), G.Kelli (1955), X.Xekxauzen (1955), Dj.Atkinson (1964), D.Makklellandlar o'z motivatsion nazariyalarida shaxs rivojlanishida ongning birinchi darajali o'rnini e'tirof qilishgan.

3. Gumanistik motivatsion yondashuv. Bu yondashuv asoschilarining muhim jihati shundan iboratki, unda shaxs xulq-atvori shakllanishi bilimlar bilan bog'liq alohida motivlarga tayanadi. Gumanistik yondashuv vakillaridan G.Ollport (1943), K.Rodjers (1955) va A.Maslou (1954) esa inson ehtiyojlarining iyerarxiyasini ishlab chiqqanlar (I-rasm). Ollport "Motivatsiya va shaxs" kitobida "shaxsning o'zini-o'zi faollashtirish" kontsepsiyasini taklif etadi. Uning fikricha, shaxsda qobiliyatlarga bog'liq ehtiyojlar tizimi mavjud bo'lib, ichki va tashqi motivlar bilan belgilanadi.

G.Ollport ehtiyojlar tizimini quyidagi darajalarga bo'ladi:

1. Birinchi daraja – fiziologik ehtiyojlar: ozuqaga, gomeostazni saqlashga ehtiyoj;
2. Ikkinchi daraja – erkin va xavfsiz yashash, ozodlikka nisbatan ehtiyoj;
3. Uchinchi daraja – muhabbatga nisbatan ehtiyoj;
4. To'rtinchi daraja – maqsadga erishuvga yo'naltirilgan ehtiyoj;
5. Beshinchi daraja – o'z-o'zini faollashtirishga nisbatan ehtiyoj[7].

D.N.Uznadze xulq-atvor motivlari muammosini inson bilan bog'lab tushuntiradi va subyekt faolligining manbayi, – deb baholaydi. Uning fikriga ko'ra, motivatsiya irodaviy aktga olib keluvchi bosqich hisoblanadi. D.N. Uznadze tomonidan ehtiyojni o'ziga xos tarzda tushuntirish holati, real xatti-harakatdagi motivning funksiyalari va ularning ustanovka bilan munosabati masalasining qo'yilishi motivatsiya nazariyasi boyishiga olib keldi [9].



Taniqli psixolog S.L. Rubinshteyn o'zining "Umumiy psixologiya asoslari" nomli asarida affiliatsiya motivi to'g'risida ilmiy-amaliy xususiyatli qonuniyatni ilgari suradi. S.L. Rubinshteyn affiliatsiya motivini inson faoliyatining maqsadi va motivi munosabatidan turib tahlil qiladi. Olim shaxsning yo'nalishi va motivi orasidagi uyg'unlikni ilmiy jihatdan ochib berishga harakat qiladi. [8]

A.N. Leontyev o'zining "Psixikaning rivojlanishi muammolari" kitobida hayotiy omillarning xatti-harakat (xulq) motiviga aylanishi psixologik mexanizmlari muammosini ilmiy jihatdan asoslab beradi. U: "Inson shaxsining shakllanishi o'zining psixologik jihatdan namoyon bo'lishini aynan motivatsion jabha rivojlanishida topadi", – degan xulosaga keladi [3].

Affiliatsiya motivi terminiga keladigan bo'lsak, affiliatsiya inglizcha "to affiliate" so'zidan olingan bo'lib; *birlashtirmoq, birlashmoq* ma'nosini anglatadi, ya'ni insonning boshqa odamlar davrasida bo'lishga intilishi tushuniladi.

Turli olimlar affiliatsiya motivatsiyasiga ta'rif berganda, affiliatsiya motivatsiyasi – muloqotga intilish, bilishga intilish, o'z-o'zini namoyon qilish, manfaatli hamkorlikka intilish kabi maqsadlar, ehtiyojlar, motivlar majmuyidan iboratligini ta'kidlashadi.

I.V. Kuznetsova o'z izlanishlarida affiliatsiya motivi namoyon bo'lishinini – muloqotdagi o'zaro tushunish, simpatiya va rad etilishdan qo'rqish tarzida belgilaydi.

A. Megrabyan o'z ilmiy-tadqiqot ishlarida affiliatsiya motivini to'rtta turga ajratadi:

1. Affiliatsiyaga ishonch yuqoriligi, rad etilishga nisbatan past sezgirlik ko'p hollarda affiliatsiyaga nisbatan ehtiyojni qondiradi. Bu vaziyatda odam o'ta muloqotmand bo'lib qolishi mumkin.

2. Affiliatsiya ehtiyojining pastligi, rad etilishga nisbatan yuqori sezgirlik ko'p hollarda affiliatsiyaga nisbatan ehtiyojni qondirmaydi yoki umuman rad etiladi.

3. Affiliatsiyaga nisbatan past intilish va rad etilishga nisbatan sezgirlikning yuqoriligi – ko'p hollarda xatti-harakatlarni qo'llab-quvvatlovchi yo ijobiy, yo salbiy affiliatsiyaga sabab bo'ladi va odam bunday holatlarda yolg'izlikni afzal ko'rib qoladi.

4. Affiliatsiyaga ishonch va rad etilishga nisbatan sezgirlikning yuqoriligi: ko'p hollarda affiliatsiyaga nisbatan ehtiyoj yo qondiriladi, yo rad etiladi. Insonda kuchli ichki ziddiyat paydo bo'ladi: u muloqotga intiladi, lekin shuning bilan birgalikda uni chetlab o'tishga harakat qiladi [6]. Ushbu tip, Megrabyan fikricha, yaqqol namoyon bo'luvchi komform xulq-atvorning motivatsion asosidir, ya'ni ijobiy va salbiy sanksiyalarni tez-tez qo'llab turish, individda bog'lanish (qaramlik) tendensiyasini shakllantirish usuliga aylanadi.

R.S. Nemov ijtimoiy xulq-atvor motivlaridan biri affiliatsiya motivi ekanligini ta'kidlab, uning asosida adekvat munosabatlar o'rnatish, saqlab qolish va mustahkamlash kabi motiv yoki ehtiyojlar yotishini aytib o'tadi.

Affiliatsiya motivi yaxshini rivojlangan insonlar odamlar bilan aloqa o'rnatishda, muloqot jarayonida, bu bevosita (yuzma-yuz) yoki bilvosita (aloqaning turli xil usullari: telefon, pochta, internet va bosh. yordamida) bo'lishidan qat'i nazar, yuqori ijtimoiy faollikni va tashabbuskorlikni namoyon etishadi. Aynan ular turli majlislar, uchrashuvlar,

kechalar, dam olish kechalarining faol ishtirokchilariga aylanadi. Affiliatsiya motivi kuchli rivojlangan insonlar o'zlariga muloqotda o'ta kirishuvchanlik, tez til topishishni, do'stona hamkor tanlashni afzal ko'rishadi. Kuzatuvlarga ko'ra, affiliatsiya motivining yuqori ko'rsatkichlariga ega insonlar yolg'iz mehnat qilgandan ko'ra, do'stlar bilan o'zaro munosabatlar yaxshi yo'lga qo'yilgan guruhda yuqoriroq ko'rsatkichlarni namoyon etadilar. Bunday insonlar do'stlik kabi munosabatlar doirasini qadrlaydilar.

S.S. Yurkovskaya tadqiqotlarida affiliatsiya motivining o'quv faoliyatidagi ahamiyatlilik darajasi o'rganilgan. Shuningdek, o'quv jarayoning muvaffaqiyatli kechishi o'qituvchi va talabalarda affiliatsiya motivining shakllanganlik darajasi bilan belgilanishi asoslab berilgan [9].

V.G. Aseyev o'z ilmiy mulohazalarida affiliatsiya motivi inson faoliyatini harakatlantiruvchi kuch va ruhiy jarayonlar boshqaruvchisi ekanligini qayd etadi.

V.S. Merlin o'zining izlanishlarida affiliatsiya motivining shifokor amaliyotida, o'qituvchilik kasbiga tayyorlash hamda o'quv jarayonida o'quvchi xulq-atvorini boshqarishdagi roli va ahamiyatini ochib beradi [5].

S.L. Rubinshteyn affiliatsiya motivining psixologik mohiyatini psixika orqali hosil bo'ladigan insonni harakatga undovchi sabablar majmuasi sifatida belgilashni taklif qiladi. Uning ta'kidlashicha, motiv – bu ehtiyojning his qilinishi va qondirilishidir. [8]

A.N. Leontyev, L.I. Bojovichlar [3] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda affiliatsiya motivi nafaqat tashqi obyektiv omillar, balki tasavvurlar, g'oyalar, his-tuyg'ular, barcha ichki subyektiv omillar ko'rinishida ham talqin qilinishi asoslangan.

K.V. Madsen "Affiliatsiya motivi – bu xulqqa yo'naltirilgan qo'llab-quvvatlovchi omillarning yig'indisidir" – deb ta'kidlaydi. Bizning fikrimizcha, affiliatsiya motivi – ma'lum bir ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu faoliyat turiga nisbatan shaxsning ichki undovchi kuchidir. [4]

Affiliatsiya motivini o'rganish bo'yicha adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, shaxsdagi mavjud motivlarni o'lchash bo'yicha keng qamrovli, tizimli nazariya asoschisi G. Myurrey hisoblanadi. Olim tomonidan tuzilgan aktual motivlar hozirgi kunga o'z ahamiyatini yo'qotmay, tadqiqotchilar uchun muhim dasturamal bo'lib xizmat qilib kelmoqda. (1-jadvalga qarang).

1.1- jadval

G. Myurrey bo'yicha asosiy motivlar ro'yxati

Motiv	Motivlarning ilmiy-nazariy tahlili
Mustaqillikka intilish	Turli xil vaziyatlarda va holatlarda, xulq-atvorda, qarorlar qabul qilishda mustaqil bo'lishga intiladi, o'zi xohlagan narsani gapirish yoki amalga oshirishga harakat qiladi, konformizmdan qochadi, o'zgalarni va vaziyatlarni tanqid qilishga moyil, mas'uliyat va javobgarlikdan o'zini olib qochadi
Destruktiv agressiya	Boshqalarni ko'pchilik ichida tanqid, behurmat qilishga, o'z fikrlarini ochiq bayon etishga, ustidan kulishga, gunohkor etishga,



	xatolik yuz bergan holatlarda o'ch olishga moyil bo'ladi
Affiliatsiya	Turli ijtimoiy aloqalar o'rnatish, do'stlar orttirish, ularning e'tiboriga sazovor bo'lish, oshnalar bilan birgalikda qarorlar chiqarish, yolg'izlikdan qochish ehtiyojini sezadi
O'z-o'zini adekvat baholash	O'zgalarning e'tiborida, diqqat markazida bo'lishga, ularda yaxshi taassurot qoldirishga intiladi, hatto o'z tashqi ko'rinishi bilan ham o'zgalarga yoqishga harakat qilib, ularning munosabatini aniqlashga ehtiyoj sezadi
Hukmronlikka intilish	Yetakchi bo'lish ehtiyoji va o'zgalari ham uni shunday qabul qilishlarini istaydi, o'z nuqtayi nazariga ega bo'lib, uni o'zgalarga ham o'tkazishga moyillik sezadi, boshqalar uchun ham qarorlar qabul qilishdan tortinmaydi, o'zining haqligini hamisha isbot qilish, boshqalarning o'z ortidan ergashishga erishishga intiladi
Dominantlik	Hamisha biror narsaga erishish, o'zgalardan yaxshiroq bo'lish, tirishqoqlik, kuch va irodani talab qiluvchi ishlarga moyil, qiyin vazifalarni yetarli darajada yaxshi bajarish orqali ijtimoiy tan olinishga erishishga intiladi
Empatiya	Do'stlarga ko'mak berish, ularga xayrixohlik va mehribonchilik qilishga tayyor, ularga xizmatlar qilish, ayblarini kechirish, muammolar paydo bo'lganda ularni tushunishga moyillik sezadi
Yordamni qabul qilish	O'zgalarga yordam so'rab murojaat qilishga va ularning ko'magini qabul qilish, ularning yoqtirishlariga erishish, mushkul vaziyatlarda o'zgalari madadini his qilishga moyil bo'ladi
O'yinga intilish motivi	Har qanday jiddiy ishga nisbatan turli o'yinlarni afzal ko'rib, hamisha maroqli dam olish, vaqtni xushchaqchilik bilan o'tkazishga intiladi, voqealar rivojiga qiziqadi. Ba'zan beg'amlik va mas'uliyatsizlik kabi sifatlar bilan uyg'unlashadi
Xavf-xatardan qochish	Turli xavf-xatarlardan – og'riq, jismoniy jarohatlar, kasalliklar va hatto o'limning oldini olish yo'llarini qidirishga, ehtiyotkor bo'lishga harakat qiladi
Kamsitilish, xo'rlanishdan qochish	Kamsitilishdan qochishga, befarqlik, haqorat, piching gapli vaziyatlardan tezroq chiqib ketishga harakat qiladi. Muvaffaqiyatsizlikka uchrash motivatsiyasi kuchli bo'lganligi sababli aktiv faoliyat ko'rsatishdan qo'rqadi
Anglash, mulohaza yuritish	Umumiy masalalarni o'rtaga tashlab, ularga javob qidirish, mavhum atamalar ustida bosh qotirish, umumlashtirishga moyil bo'ladi. Hayotning ma'no va mohiyati, yaxshilik va yovuzlik haqida ko'p o'ylaydi
O'zgalarni	Kimlargadir yaxshi aloqalar o'rnatishiga xalaqit beradi;



nkor (rad) etish	tanqidiylik, qo'pollik, kimlarnidir ajratishga moyilbo'ladi, benomus. O'zgalarni hech qachon yuzaga chiqarmaslikka moyil bo'ladi
Tan olish yoki obro'li insonlarni tan olish	O'zgalarning yo'riqlarini qabul qilish, ularning takliflariga quloq tutish, boshqalarga ma'qul bo'lgan qarorlarni hurmat qilish, ularni kerak joyda maqtash, tan olishda moyillik, shundaychki ehtiyojningborligi, turli xilshartlarva an'analar nibuzishdanqochishga intiladi
Qarshilik ko'rsatish	Omadi chopmaganda vaziyatni o'z qo'liga oladi. O'z kuchsiz tomonlari ustida ishlaydi. Qo'rquvni bosadi. Haqoratlariga amaldagiharakatbilanjavobqaytaradi. Qiyinchiliklarniyengib o'tishda uchraydiganto'siqlardanqo'rqmaydi. O'zini hurmat qilish hissini saqlashga harakat qiladi
O'zini-o'zi himoyalash	O'zinitayblov, tanqidlardanhimoya qiladi. O'zibajarganishlarni, muvaffaqiyatsizlikva tahqirliklarnibekitadi. O'z "men"ini tan oldirtiradi. Nazarida hamma atrof idagilarunga dushmandek tuyuladi, shuninguchun o'z xatolarinitan olmaydi, vaziyatnibahona qilib o'zini oqlashyo'llariniqidiradi, o'z xatolarinitahlilqilmaydi
O'zini kamsitish, xo'rlash	Aybga iqror bo'lish va xatolar uchun jazolanishga tayyor, noto'g'ri harakatlar sodir etilgan vaziyatlarda xatoni bo'yniga oladi, o'zini aybdor his qilib, o'zini ko'pchilikdan ortda, yomonroq deb qabul qilishga moyilligi bo'ladi.
Geteroseks uallik, seksual munosabatlarga moyillik	Qarama-qarshi jins vakillariga yo'nalganlik, qarama-qarshi jins vakillari bilan uchrashib turishga, ularga yoqishga, jinsiy munosabat mavzularida ular bilan muloqot qilishga moyil bo'ladi. Erotik o'zaro munosabatlar doirasini shakllantiradi va rivojlantiradi
Tartib-intizomga intilish	O'z hayotining mayda-chuyda jihatlarini ham hamisha tashkil etishga intiqlik, faoliyatni oldindan rejalashtirishga moyillik, doimiy orastalik, saronjom-sarishtalikka intiladi, ish o'rnini tartibda tutish, ovqatlanish vavaqt me'yorlarini ham doimiy tartibda ushlashga ehtiyoj sezadi. Harnarsada tartib, tizimlilik, izchillik, orastalik, aniqlik, go'zallikka intiladi
Hissiyotlar ga berilganlik	Hissiy taassurotlarni izlaydi va ulardan bahra oladi.

Ayni paytda bir narsani ta'kidlash lozimki, yuqoridagi taqdim etilgan motivlar ro'yxatidan faqat uchtagina olimlar tomonidan keng qamrovli tadqiqotlar predmetiga aylandi, xolos. Bular muvaffaqiyat, affiliatsiya va hokimiyatga intilish (dominantalik) motivlaridir.

Yuqoridagi ilmiy-nazariy tahlillardan ko'rish mumkinki, motivatsiya muammosi bo'yicha turli nazariyalar mavjud bo'lib, ularda ushbu muammo turli obyektlarda o'rganilgan. Ayni paytda shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kungacha ham hali motiv va motivatsiya muammosiga yagona ta'rif mavjud emas. Shunday bo'lsa-da, tadqiqotimiz jarayonida motiv va motivatsiya muammosiga bag'ishlangan hozirgacha mavjud ilmiy nazariyalar va talqinlar bizga ushbu muammoni tadqiq etishning metodologik asosini yaratish uchun muhim omil sifatida asos bo'la oladi.

Tadqiqotimizdagi nazariy tahlillardan shuni xulosalash mumkinki, motiv ko'p qirrali ehtiyojlar bilan bog'liq jarayon tarzida talqin etilganligi bois u inson faoliyati bilan uzluksiz bog'liqdir.

Yuqoridagi barcha mulohazalar affiliatsiya motivi muammosiga psixologik muammo sifatida qarashni va uni bugungi kunda o'quv faoliyat doirasida (ayniqsa, o'smirlar faoliyatida) yanada chuqurroq, mukammalroq tahlil qilish uchun o'ziga xos empirik ma'lumotlarga asoslangan ham nazariy, ham amaliy jihatdan ilmiy aniqliklar kiritish zarurligini taqozo etadi.

АДАБИЁТЛАР:

1. Божович Л.И. Проблемы развития мотивационной сферы ребенка. - В кн.: Изучение мотивации поведения детей и подростков. - М.: Педагогика, 1972. - 340 с.
2. Кузнецова И.В. Мотив аффилиации в межличностных отношениях: Дис. канд. псих. наук. - СПб.: СПбГУ, 2006. - 200 с.
3. Леонтьев А.Н. Потребности, мотивы, эмоции. - М.: МГУ, 1971. - 380 с.
4. Madsen K.B. Theories of motivation. N.V.: Verl. Psychol, 1968. p. 431.
5. Мерлин Б.С. Лекции по психологии мотивов человека. - Пермь: ГПИ, 1971. - 120 с.
6. Mehrabian A. Verbal and nonverbal interaction of strangers in a waiting situation// Journal. Research in Personality. - 1971. - 5.
7. Олпорт Г. Становление личности: Избранные труды/ [Пер. с англ.]// Под общ. ред. Д. А. Леонтьева. - М.: Смысл, 2002. С.67-68.
8. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. В 2-х т. - М.: Педагогика, 1989. Т. II. - 488с.
9. Узнадзе Д.Н. Психологические проблемы мотивации поведения человека. - М.: Наука, 1969. - 213 с.
10. Лебедева М.М. «Мягкая сила» в отношении Центральной Азии: участники и их действия / М.М. Лебедева// Вестник МГИМО-университета. - 2014. - № 2 (35). - С. 47-56.